

## BOLALARNING RIVOJLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI IJTIMOIIY OMILLAR

**Abdurashidova Bahoroy**

Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 1-24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20268130>

**Annotatsiya:** Bola rivojlanishi ko‘plab omillar ta‘sirida shakllanadi. Shulardan eng muhimlari oilaviy va ijtimoiy omillardir. Oila –bola uchun birinchi ijtimoiy muhit bo‘lib, unda bolaning dastlabki ko‘nikmalari, qiziqishlari va shaxsiyati shakllanadi. Ijtimoiy omillar esa bolaning kengroq ijtimoiy muhitga moslashuvi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

**Kalit so‘zlar:** bola rivojlanishi, oilaviy muhit, ijtimoiy omillar, madaniy ta‘sir, tarbiya, ta‘lim.

**Abstract:** Child development is shaped by many factors. The most important of these are family and social factors. The family is the first social environment for a child, where the child's initial skills, interests, and personality are formed. Social factors play an important role in the child's adaptation and development to the wider social environment.

**Keywords:** child development, family environment, social factors, cultural influence, upbringing, education. Kirish

### KIRISH

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko‘p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me‘yorlar o‘zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvda sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o‘zlashtiradi. Agar bola tug‘ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi turli muhitlar - maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko‘ngilochar maskanlarda kechadi.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo‘lib tug‘ilayotgan bolalar soni ko‘paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og‘ir kechadi. Shuning uchun ularga o‘qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug‘ullanishadi. Bu bolalar o‘z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan bir muhitda ta‘lim olishi (inkluziv ta‘lim) nafaqat ularning o‘zi, balki butun jamiyat uchun muhim ijtimoiy omildir. Bu jarayon bolalarda bag‘rikenglik (tolerantlik), hamdardlik (empatiya) va o‘zaro yordam berish kabi insoniy fazilatlarini shakllantiradi. Sog‘lom tengdoshlar bilan muloqot alohida ehtiyojli bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va uning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytirib, ijtimoiy adaptatsiyasini tezlashtiradi.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi.

1. Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, yer shari, planetar jarayonlarni kiritisa bo‘ladi.
2. Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya‘ni yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta‘sir ko‘rsatadigan omillarni kiritiladi.

3. Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarining ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.

4. Mikroomillar, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillarga -oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlar, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi. [2]

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda raqamli muhit (internet, ijtimoiy tarmoqlar) bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi yangi va kuchli omilga aylandi. Virtual muloqot bolaning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, unda real muloqot ko'nikmalarining pasayishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, bola rivojlanishida mediata'lim va "axborot gigiyenasi" qoidalariga amal qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi submadaniyatlarning salbiy ta'siridan himoyalanih muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bola uchun oiladan keyingi birinchi "mikro-jamiyat" vazifasini o'taydi. Bu yerda bola ilk bor teng huquqli jamoa a'zosi sifatida muloqotga kirishadi, ijtimoiy iyerarxiya va umumiy qoidalariga bo'ysunishni o'rganadi. Jamoaviy o'yinlar va muloqot jarayonida bolada ijtimoiy mas'uliyat hissi uyg'onadi. Aynan shu bosqichda bola o'zining "men" konsepsiyasini jamoatchilik fikri asosida tahrir qilishni boshlaydi, bu esa uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi eng muhim burilish nuqtasidir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ijtimoiy muhitning ahamiyatiga e'tibor qaratilgan bo'lib, ta'limning davlat va jamiyat oldidagi vazifalari sifatida shaxsning intellektual, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi belgilab qo'yilgan. Demak, bola shaxsining shakllanishi ijtimoiy muhitdan ajratib o'rganib bo'lmaydigan jarayondir. [1]

Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi.

Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.[3]

Oila muhiti -insonning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ini ko'radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa, bolaning axloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi. Ijtimoiy muhit -ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. [5]

Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. SHaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta'siri tarbiya asosida kechadi. Zero, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'lik ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham bartaraf etilib, shaxs kamolga etadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir. SHunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakch o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.[4]

Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga egadir.

Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga egadir.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. “Ta’lim to’g’risida”. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.09.2020-y., № O’RQ-637-son..
2. Abdullayeva, B. S. & Rizayeva, G. B. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. O’quv-uslubiy qo’llanma. – Toshkent, 2024..
3. Jiyenbayeva, A. K. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari mavzusidagi ilmiy-uslubiy to'plam. – 2025. – №19 (3-son). – 249-b..
4. Nazirova, G. M. & Norimonova, Sh. N. Modern Approaches in Preschool Education. // “International Experience and Modern Approaches in Preschool Education” International Scientific and Practical Conference. – 2024. – 15-may. – DOI: 10.5281/zenodo.11210261..
5. Ubaydullayeva, N. Z. Psixologik amaliyotning zamonaviy masalalari. [www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)